


Zilzila paytida

Har yili tabiiy ofatlar tufayli turli mamlakatlarda o'n minglab odamlar halok bo'ladi. Zilzila eng xatarli ofat hisoblanadi, chunki zilzilada qurbanlar soni eng ko'p bo'ladi.



Butun Yer yuzasi tartibsiz shakldagi ulkan plitalardan tashkil topgan.



Yer qobig'i harakatlanuvchi plitalardan iborat. Bu plitalar bir-biriga yaqinlashishi yoki uzoqlashishi, biri ko'tarilib, boshqasi pasayishi mumkin. Ana shu vaqtida zilzilalar sodir bo'ladi. Natijada, yer ajraladi va chuqr yoriqlar paydo bo'ladi.

Ana shunday plitalar chegarasida joylashgan ko'plab mamlakatlarda zilzilalar tez-tez kuzatiladi. Ba'zan zilzila kuchsiz, ba'zan esa kuchli bo'ladi va uylar qulaydi.



Xaritaga qarang va plitalar chegaralari qayerdan o'tganligiga e'tibor bering. Sizningcha, qaysi materiklarda zilzila deyarli sodir bo'lmaydi? Qaysilarida esa tez-tez zilzila bo'lib turadi? Nima uchun?



Zilzila va uning sabablarini o'r ganuvchi olim **seysmolog** deb ataladi.

Zilzila epitsentri – bu zilzila eng kuchli bo'lgan nuqta. Xuddi shu nuqtadan zilzila to'lqinlari boshlanadi va har tomoniga tarqaladi.

Zilzilaning qanchalik kuchli yoki kuchsiz bo'lganini aniqlash uchun 12 balli shkala o'ylab topilgan. Ball qancha yuqori bo'lsa, zilzila shunchalik kuchli bo'ladi.



Matndagi tavsiflar rasmda ko'rsatilgan ballarning qaysilariga mos keladi?



- 1.0** Odamlar zilzilani deyarli sezmaydi, uni faqat maxsus asboblar sezadi.
- 3.0** Xonadagi odamlarga seziladi, chunki shiftdagi chiroqlar tebranadi, idish-tovoqlar zirillaydi, javonlarning eshiklari taqillaydi, piyoladagi choy to'kilishi mumkin.
- 4.0** Faqat uyning ichida emas, ko'chada ham seziladi, javondagi buyumlar qulaydi.
- 6.0** Odamlar muvozanatini yo'qotadi, derazalarning oynasi sinadi.
- 8.0** Yog'och uylar qulaydi.
- 10.0** Binolar va ustunlar qulaydi, yer ostidagi quvurlar yoriladi, yerda yoriqlar paydo bo'ladi.

Zilzila tez-tez bo'lib turadigan yurtlarda me'morlar, muhandis va quruvchilar binolarni 9 balli zilzilaga bardosh bera oladigan qilib quradilar. Bunday zamonaviy binolar zilzila paytida yengil shikastlanishi, derazalari sinishi mumkin, lekin buzilib ketmaydi.

Toshkentda dahshatli zilzilani eslatib turuvchi Jasorat monumenti o'rnatilgan. Bu zilzila 1966-yil 26-aprel kuni ertalab soat 5 dan 23 minut o'tganda sodir bo'lgan. Uning kuchi 8 balldan yuqorini tashkil etgan. Bu zilzilada 8 kishi halok bo'lgan, 200 kishi jarohatlangan va 300 000 kishi bospanasiz qolgan.



Zilzila paytida nima qilish kerak?

Bunday paytda nima qilish kerakligi odamning zilzila paytida qayerda turganiga bog'liq.

Binoning ichida, masalan,
uyda yoki mакtabda

Ko'chada

XOTIRJAM BO'LING, VAHIMAGA TUSHIB QOLMANG

- Tashqariga chiqishga urinmang.
- Zinapoyalarda yugurmang.
- Liftga kirmang.
- Stol tagiga kirib oling.
- Bosh va bo'yningizni qo'lingiz bilan himoya qiling.
- Oyna, shisha va ko'zgulardan uzoqroq bo'ling.

- Keng, ochiq joyga chiqib olishga harakat qiling, daraxtlardan, ustunlardan, elektr simlardan, binolarning devorlaridan uzoqroq turing.
- Yerga yotib, qo'lingiz bilan bosh va bo'yningizni ehtiyyot qiling.

Mening kashfiyotlarim

1

Yer Quyosh atrofida aylangani uchun fasllar o'zgarishi sodir bo'ladi.

2

Gorizont – bu osmon bilan yer o'rtaсидаги уғқ чизиг'i.

3

Gorizontning to'rt tomoni bor: shimol, janub, sharq, g'arb.

4

Yo'nalishni topish – bu qayerda turganingizni aniqlashni bilish.

5

Yer qobig'i harakatlanuvchi plitalardan iborat.

6

Kataklizmlar insonlarga tahdid soladigan tabiiy ofatlardir.

VI bob. Tanish-notanish moddalar

